

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SAYYID BURHONIDDIN MUHAQQIQ TERMIZIY: HAYOTI VA TADQIQOTLAR XRONOLOGIYASI

Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, DSc doktoranti.

e-mail: jamahmatovkaromiddin@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0005-5655-2714>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy haqida tarixiy-adabiy manbalarda kelgan ma'lumotlar tahlil etilib, tarjimai holi borasida ma'lumot berildi. Shuningdek, muallif hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar qiyosiy o'rganilib, mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari tavsiflandi. Ma'lumki, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hayoti va faoliyati borasida mahalliy olimlarimiz M. Kenjabek, J. Cho'tmatov, R. Abdullayev o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan. Mutafakkirning tarjimai holi va asarlari mavzu-mundariyasi borasida bugungi kunga qadar mukammal tadqiqot ishlari olib borilmaganligi bois, dastlab ushbu maqolada allomaning tarjimai holi borasida mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari ko'rsatib o'tildi. Maqolada Burhoniddin Termiziy tarjimai holining o'rganilishi asosan ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi mutafakkir zamondoshlari tomonidan o'z asarlarida kelgan tavsiflar keltirilib, tahlil etilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda bugungi kunda xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari zikr etildi. Natijada muallif tarjimai holi haqida yaxlit ilmiy ma'lumot shakllantirildi.

Kalit so'zlar. Burhoniddin Termiziy, Termiz, "Maorif", tasavvuf, odob-axloq, sayyid, Ko'niya, Bahouddin Valad, Ahmad Aflokiy, adabiy asarlar.

САЙИД БУРХАНИДДИН МУХАККИК ТЕРМИЗИ: ХРОНОЛОГИЯ ЕГО ЖИЗНИ И ИССЛЕДОВАНИЙ

Жамахматов Каромиддин Айнилло угли

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, докторант (DSc).

Аннотация.

В данной статье анализируются сведения о Саййиде Бурхониддине Мухаккике Термизи в исторических и литературных источниках, а также приводятся сведения о его биографии. Также проводится сравнительное изучение сведений, связанных с жизнью автора, и описываются исследования местных и зарубежных ученых. Известно, что наши местные ученые М. Кенджабек, Дж. Чотматов, Р. Абдуллаев в своих научно-исследовательских работах предоставили краткую информацию о жизни и творчестве Бурхониддина Мухаккика Термизи. Поскольку до сих пор не было полной исследовательской работы по тематике-содержанию биографии и произведений мыслителя, в данной статье вначале представлены исследовательские работы местных и зарубежных ученых по биографии ученого. Изучение биографии Бурхониддина Термизи в данной статье проводилось в основном в два этапа. Первый этап заключался в представлении и анализе описаний современников мыслителя в их трудах, а второй этап - в современных исследованиях зарубежных и местных ученых. В результате было сформировано комплексное научное изложение биографии автора.

Ключевые слова. Бурхониддин Термизи, Термиз, «Маариф», Суфизм, нравы, Сайид, Кония, Бахауддин Валад, Ахмед Афлокий, литературные произведения.

SAYYID BURHANIDDIN MUHAQQIQ TERMIZI: A CHRONOLOGY OF HIS LIFE AND RESEARCH

Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, DSc Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the information about Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termizi in historical and literary sources and provides information about his biography. Also, information related to the author's life is comparatively studied, and the research of local and foreign scientists is described. It is known that our local scientists M. Kenjabek, J. Chotmatov, R. Abdullayev have provided brief information about the life and work of

Burhoniddin Muhaqqiq Termizi in their scientific research works. Since there has not been a complete research work on the subject-content of the thinker's biography and works to date, this article initially presents the research work of local and foreign scientists on the biography of the scholar. The study of the biography of Burhoniddin Termizi in the article was carried out mainly in two stages. The first stage was to present and analyze the descriptions of the thinker's contemporaries in their works, while the second stage was to present-day research by foreign and local scientists. As a result, a comprehensive scientific account of the author's biography was formed.

Keywords: Burhanuddin Termizi, Termez, "Maorif", Sufism, ethics, sayyid, Koniya, Bahauddin Walad, Ahmad Afloki, literary works.

Kirish. Burhoniddin Termiziy hayoti borasida xorijiy olimlardan – fors olimlari **Badiuzzamon Furuzonfar** [7:106], **Tavfiq Hoshimpur Subhoniy** [2:24], shuningdek, turk olimlari **Abdulboqiy Gulpinarli** va **Ali Rizo Karabulut** [7:72]ning tadqiqotlari tahsinga loyiq.

Sayyid Burhoniddin Termiziy hayoti va asarlari borasida Badiuzzamon Furuzonfar «**Maorif**» nomli asarni tahqiq va tas'hih qilish jarayonida yozgan muqaddimasida zarur ma'lumotlarni berib o'tgan. Olim asarning muqaddima qismida Burhoniddin Termiziyning «**Maorif**» asarining ilmiy-adabiy ahamiyati borasida so'z yuritib, shunday deydi:

[5:106] است میفرموده هدایت طریق عقبات و سلوک مزایق در راوی سال نه مدت و بوده مولانا پیر و نما راه پدر

(Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma'naviy murshidi bo'lib, to'qqiz yil sayr-u sulukning mashaqqati bilan birga zavqini ham o'rgatardi.)

Bu bilan tadqiqotchi olim Sayyid Burhoniddin Termiziy buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiya to'qqiz yil davomida mavlaviylik tariqatining sayr-u suluk yo'lini o'rgatib, ma'naviy pir sifatida ruhiy tarbiya berganini bayon etadi. Badiuzzamon Furuzonfar ilk marta Sayyid Burhoniddin Termiziyning «**Maorif**» qo'lyozma nusxasi bilan Turkiyadagi **Salim Og'a kutubxonasi** fondida tanishadi. Burhoniddin Termiziy o'z asarida «**Muhaqqiq**» nomi bilan o'ziga ishora qilgani borasida olim quyidagi iqtibosni keltiradi:

[5:11] است نمانده موی یک محقق و حق میان ام رسیده له الله بکان ام گزشته الله کان از اکنون

Endi men: «Kim Allohnik bo'lsa»^[1] martabasidan o'tdim, hozir «Alloh ham uniki bo'lur» (qurbat maqomi) maqomidaman. Haq bilan Muhaqqiq orasida bir qil miqdori masofa qolmadi.

Mutafakkirning ushbu so'zi «**Maorif**» asarida keltirilgan bo'lib, muallifning mavlaviylik tariqatidagi maqomi va «**Muhaqqiq**» unvonini dalillaydi. Yoki boshqa bir joyda:

[5:106] بواسطه شنو محقق از ،واسطه بی شنوی حق از که نشده هاسل طهارت آن تورا روح اگر

(Qachonki ruhing Haqdan vositasiz eshitadigan darajadagi tahoratga erishmagan bo'lsa, Muhaqqiqdan vosita orqali tingla. Chunki uning ruhi Haq qabuliga erishgan.)

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Badiuzzamon Furuzonfar Burhoniddin Termiziyning hayoti haqida ma'lumot berar ekan, asosan mutafakkirning o'z asarlariga tayangan holda fikr yuritadi. Shuningdek, olim Mavlono Jaloliddin Rumi, Sulton Valad, Shamsiddin Ahmad Aflokiy hamda Salohiddin Zarko'b keltirgan ma'lumotlardan ham foydalanganini ko'rish mumkin. Adabiyotshunos olim Badiuzzamon Furuzonfar ushbu asar tahqiqiga yozgan muqaddimasida mutafakkirning ona vatani Termiz ekanligi, «**Muhaqqiq**» unvoniga ega bo'lgani, nasab jihatidan Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga borib tutashishi, ustozlari, muridlari, ta'lif etgan asarlari, ularning lisoniy xususiyatlari hamda genezisi haqida muhim faktik ma'lumotlarni keltiradi. Bu esa fors adabiyotshunosligida Burhoniddin Termiziy hayoti va ilmiy-adabiy merosiga katta qiziqish bo'lganidan dalolat beradi.

Fors olimlaridan Tavfiq Hoshimpur Subhoniy Badiuzzamon Furuzonfar olib borgan ilmiy tadqiqotlar asosida mutafakkirning hayoti va «**Maorif**» asari haqida ayrim ma'lumotlarni to'ldirib bergani alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ساحل بر و خرم شهری، ترمذ او زادگاه. اندکرده قید گوناگون القاب بار او منابع در. است دست در محدودی اطلاعات ترمذی محقق الدین برهان سید یدرباره [2:5]. کرد یکسان خاک بار او آن چنگیز که بود واقع جیحون رود

Mazmuni: Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy haqida manbalarda juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Manbalarda u turli laqablar bilan tilga olinadi. Uning vatani Amudaryo bo'yida joylashgan go'zal Termiz shahri bo'lib, keyinchalik Chingizxon tomonidan vayron qilingan.

Tadqiqotchi mutafakkir tarjimai holi haqida ma'lumotlar nihoyatda kam saqlanganini qayd etib, asosan Badiuzzamon Furuzonfar hamda Shamsiddin Ahmad Aflokiyning «**Manoqib ul-orifin**» asariga tayanadi. Hoshimpur Subhoniy keltirgan ma'lumotlar, asosan, takroriy xarakterga ega bo'lib, yuqorida tilga olingan manbalarga asoslangan.

Mazkur asar muqaddimasida Burhoniddin Termiziyning hayoti, nasabi, vatani, ustozlari, ilmiy safarlari, tariqatdagi sayr-u suluki, davrning ijtimoiy-siyosiy muhiti, asarlarining mazmun-mohiyati hamda ruhiy olami haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Adabiyotshunos olim «**Maorif**» asarining hech qanday shubhasiz Burhoniddin Termiziy qalamiga mansubligini tasdiqlovchi bir qator dalillarni keltiradi. Jumladan:

Birinchidan, asarda mutafakkirning nomi to'rt marta tilga olinadi.

Ikkinchidan, Sayyid Burhoniddin Termiziy rivoyat qilgan ayrim voqea-hodisalar hamda tasavvufiy qarashlar Sulton Valadning «**Valadnoma**» va Aflokiyning «**Manoqib ul-orifin**» asarlarida deyarli bir xil shaklda uchraydi.

Uchinchidan, asarning ko'chirilgan qo'lyozma nusxalarining aksariyati Sulton Valad va uning muridlari yashagan davrga to'g'ri keladi.

To'rtinchidan, ushbu asarda xuddi Mavlono Jaloliddin Rumi singari Sanoiy G'aznaviy she'rlaridan ko'plab iqtiboslar keltirilgan. Jumladan, «**Maorif**» asarida jami 105 bayt forsiy she'riy parchalar mavjud bo'lib, shundan 24 bayt

bevosita Sanoiyga tegishli, yana 12 bayt ham unga nisbat beriladi. Bu holat mutafakkirning Sanoiy ijodiga ixlos qo'yganini va undan kuchli ta'sirlanganini ko'rsatadi.

Beshinchidan, Sayyid Burhoniddin Sulton ul-ulamo Bahouddin Valadning sodiq muridlaridan bo'lib, o'z asarida uni **«Mavlonoyi buzurg»** («Ulug' Mavlono») unvoni bilan tilga oladi.

Oltinchidan, asarni ko'chirgan kotiblarning mavlaviylik tariqati vakillari bo'lgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi [2:9].

Mazkur dalillar Burhoniddin Termiziy tarjimai holini aniqlash bilan bir qatorda, **«Maorif»** asarining shubhasiz unga tegishli ekanini ham tasdiqlaydi. Shuningdek, asarning ko'plab va'z va suhbatlari shogirdlari tomonidan yozib olingani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu ma'lumotlar muallifning ustozlari, shogirdlari hamda asarning genezisini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Mutasavvif shoir Sanoiy G'aznaviy ijodi Burhoniddin Termiziyga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. U Sanoiy o'zining ma'naviy murshidlaridan biri sifatida ulug'lagani sababli, **«Maorif»** asarining deyarli har bir mavzusida uning she'rlaridan namunalarni uchratish mumkin.

Turk olimlari Abdulboqiy Gulpinarli va Ali Rizo Karabulut **«Maorif»** asarining turkcha tarjimasi bilan birga Burhoniddin Termiziy hayoti haqida ham qisqacha ma'lumot berganlar. Ular **«Bahâeddin Veled'in müridi ve Mevlânâ'nın hocası olan Seyyid Burhâneddin Muhakkı-ı Tirmizî»** haqida avtobiografik ma'lumotlarni bayon etib, asarni Badiuzzamon Furuzonfar nashri asosida turk tiliga tarjima qilganlar.

Termiziyshunos turk olimi Ali Rizo Karabulut Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning **«Maorif»** asarini fors tilidan turk tiliga tarjima qilib, muqaddimada mutafakkir hayoti va asarning tarkibiy tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot beradi [7:56].

Umuman olganda, fors va turk olimlari Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hayoti va asarlari yuzasidan e'tiborga molik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Mahalliy olimlardan Ramazon Abdulloyev, Bobonazar Murtazoyev, Sayfulloh Tursunov, Jaloliddin Mirzayev, Mirzo Kenjabek hamda Jo'rabek Cho'tmatovlarning tadqiqotlarida Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy tarjimai holi va ilmiy merosi haqida tavsifiy ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Mirzo Kenjabek **«Buyuk Termiziy»** tazkirasida Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy 1165-yilda qadimiy Termiz shahrida tavallud topgani hamda 1240/1241-yillarda Turkiyaning Qaysariya shahrida vafot etgani haqida ma'lumot beradi [4:204]. Muallif ushbu tazkirada mutafakkirning hayoti, nasl-nasabi, ustozlari hamda asarining mavzu va mundarijasi haqida ham to'xtalib o'tadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hayoti va unga bag'ishlangan tadqiqotlarning xronologiyasini yoritishga bag'ishlangan mazkur maqolada germeneytik va analogik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Burhoniddin Termiziy tarjimai holi hamda ijodiy merosini o'rganishda, avvalo, Mavlono Jaloliddin Rumiyning **«Masnaviyi ma'naviy»** asariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Rumi o'z asarida Burhoniddin Termiziy **«Burhoni Muhaqqiq»**, **«hamchu nur»** («nur kabi porloq») sifatleri bilan tilga oladi. Sulton Valad esa uni **«Mash'ali rohi haq»**, **«Oftobi olam»**, **«Ma'dani ilmu irfon»** va boshqa yuksak ta'riflar bilan ulug'laydi. Shamsiddin Ahmad Aflokiy esa mavlaviylik tariqatining ikkinchi silsilasida Bahouddin Valaddan keyin Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy zikr etadi [9:66].

Mazkur manbalar ma'lumotlariga tayangan holda mutafakkir tarjimai holini quyidagicha tavsiflash mumkin.

Mutafakkirning ismi Burhoniddin, otasining ismi Hasan, bobosining ismi Qosim bo'lgan. To'liq ismi **Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy**dir. Nasl-nasabi Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning nabiralari Husayn roziyallohu anhuga borib tutashgani sababli unga **«Sayyid»** va **«Husayniy»** nisbalari berilgan. O'z asarlarida ham, boshqa manbalarda ham u **«Muhaqqiq»** unvoni bilan ko'p bora tilga olinadi.

Mazkur ta'riflarning to'g'riligini inobatga olgan holda, Mavlono Jaloliddin Rumi ham **«Masnaviy»** asarida Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy **«Haq yo'lida doimo sobitqadam turuvchi»** va **«Nur kabi haqiqatni yorituvchi»** [3:246] sifatleri bilan madh etadi. Bu tavsiflar uning shaxsiy fazilatlarini yanada yorqinroq ochib beradi.

Sulton Valad esa **«Valadnoma»** masnaviyida Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy nomini o'n uch marta tilga oladi. Asarda mutafakkirning nafaqat yuksak fazilatleri, balki tarjimai holiga oid muhim tarixiy ma'lumotlar ham bayon etilgan.

Jaloliddin Rumi «Masnaviy» asarida Muhaqqiq bilan muqallid shaxsni quyidagicha sharhlaydi:

از مُحَقِّقِ تَأْمُقَدِّدِ فَرْقِ هَاسِتِ

[3: 212] کين چو داودست و ، آن ديگر صداست

Mazmuni: *Muhaqqiq bilan muqallid orasida farqlar bor: biri xuddi Dovud alayhissalomdek bo'lsa, ikkinchisi faqat ovoznig o'zidir.*

Rumi ushbu bayt orqali muhaqqiqni Dovud alayhissalomga qiyoslaydi. Dovud alayhissalom o'zining yoqimli va ta'sirchan ovozi bilan tog'larni ham larzaga keltirgan bo'lsa, muqallid esa faqat shu ovozning tog'lardagi aks-sadosiga o'xshaydi. Darhaqiqat, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy haqiqiy muhaqqiq zot bo'lgan. Uning asarlaridagi tasavvufiy bayonlar, obrazlar, istilohlar hamda va'z-nasihatlarining o'ziga xos uslubi kitobxonga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ko'plab mashoyixlarning o'z asarlarida u haqda ma'lumot berishi uning yuksak ilmiy va ma'naviy salohiyatidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy **«Nasoyim ul-muhabbat»** asarida Burhoniddin Termiziy tarjimai holi haqida qisqacha ma'lumot berib, shunday yozadi: *«Husayniy sayyiddur va Tirmizdan erdi va Shayx Bahouddin Valad q.s.ning as'hobi va*

muridlaridandur. Aning xavotirg'a ishrofi jihatidan Sayyidi Sirdon g'a mashhurdir. Ul kunki Shayx Bahouddin Valad olamdan o'tti, Sayyid Termizda o'tturing erdi. Dediki, shayxim va ustodim hazratlari dunyodan rihlat qildilar. Va necha kundan so'ngra Mavlono Jaloliddin tarbiyati uchun Ko'nyag'a mutavajjih bo'ldi. Va Mavlono Jaloliddin hazratlari to'qqiz yilg'acha alar xizmatlarida bo'lub, irshodlar ko'rub tarbiyat toptilar. Debdurlarki, chun Shayx Shihobuddin Suhravardiy Rumg'a keldi, Sayyid hazratlarini ko'rgali bordi. Sayyid kul ustiga o'tturing erdi, o'rnidan tebrannadi. Shayx yiroqdin ta'zim qildi va o'tturing, hech voqe bo'lmadi. Muridlar sukut sababini so'rdilar. Shayx dediki: "Hol ahli bila so'zlashurg'a hol tili kerak, yo'qki qol tili!" Muridlar so'radilarki: "Sayyidni nechuk toptingiz?" Shayx dedi: "Daryoye toptuq, mavvoji ma'oni duraridan..." ...Shayx Salohuddin Sayyidning muridlaridandur. Sayyid derlar erishki: "Holimni Shayx Salohudding'a bag'ishladim va qolimni Mavlono'g'a." Va Sayyidning mutabarrik mazori Qaysariyadadur» [1:317-318].

Alisher Navoiy ushbu ma'lumotlar orqali Sayyid Burhoniddin Termiziyning asl vatani Termiz zamini ekanini, Sulton ul-ulamo Bahouddin Valad qo'lida ta'lim-tarbiya olganini, Mavlono Jaloliddin Rumiy otasi tomonidan unga tarbiya uchun topshirilganini, ilm ul-qol va ilm ul-hol sohibi sifatida o'z davrida karomatlari namoyon bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, Shayx Shihobuddin Suhravardiy kabi ulug' zotning Sayyidni ziyorat qilib, u bilan «hol tili» orqali muloqot qilgani, muridlarning esa bu holning ma'nosini anglay olmagani, Salohiddin Zarko'bning ham uning ma'naviy tarbiyasidan bahramand bo'lgani haqidagi ma'lumotlar Burhoniddin Termiziy shaxsiyati va ilmiy-ma'naviy merosini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy taxminan 1165-yilda Termiz zaminida tavallud topgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida tarixiy manbalarda batafsil ma'lumot uchramaydi. Otasining ismi Hasan Husayniy, bobosining ismi esa Qosim Husayniy bo'lgani qayd etilgan. U yoshligidan ilm-fanga qiziqib, dastlabki ta'limni otasidan oladi. Ilmga bo'lgan kuchli muhabbati tufayli o'sha davrda mavjud bo'lgan ko'plab fanlarni, ayniqsa tasavvuf ilmini chuqur o'zlashtiradi. Sulton Valadning ta'kidlashicha, Burhoniddin Termiziy yoshlik davrida bobosi va ustoz Bahouddin Valad huzurida ilm olish maqsadida Balxga kelgan.

در جوانی بلخ چون آمد
خواست کان جایگاه آرام
جدّ مارا چو دید طالب
که بر او بود عشق حق غالب
لقیش بود بهاء الدین ولد،
عاشقانش گزشته از حد و حد
جمله اجداد او شیوخ و کبار،
[8:149] همه در علم و در عمل مختار

Mazmuni: Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy yoshligida ruhiy tarbiya olish maqsadida Balxga keladi. Tolibi ilm bizning bobomizni ko'rganida, Haq muhabbati unga (Bahouddin Valadga) g'olib kelganini payqaydi. Uning laqabi Bahouddin Valad bo'lib, muridlari son-sanoqsiz edi. Barcha bobolari ulug' shayxlardan bo'lib, ilm va taqvoda go'yo tanlab olingandek edilar.

Bu baytlar orqali Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hamda uning ustoz Bahouddin Valad hayotiga oid ayrim avtobiografik ma'lumotlarga oydinlik kiritish mumkin. Jumladan, yosh Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy dastlabki ilmlarni Termiz zaminining ulug' allomalaridan olgani, so'ngra Balxga yo'l olgani ma'lum bo'ladi.

Bahouddin Valadning nasl-nasabi amir ul-mo'minin Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuga borib taqaladi. Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy qirq kun davomida ushbu zotdan ta'lim olib, Termizga qaytadi. Termizda bir yil yashab, olgan ilmlarini yanada mustahkamlash hamda tasavvuf ilmlarini chuqurroq o'rganish maqsadida yana Balxga, ustoz Bahouddin Valad huzuriga boradi va u yerda uch yil qoladi. Bu davr mobaynida u zohiriy va botiniy ilmlarni mukammal egallab, ma'naviy yetuklik darajasiga erishadi. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy o'n ikki yil davomida ma'naviy murshidi Bahouddin Valad xizmatida bo'lib, undan katta ilmiy va ma'naviy manfaat oladi.

1232-yilda Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy Termizdan Saljuqiylar poytaxti bo'lgan Ko'niyaga yo'l oladi. Ayrim manbalarga ko'ra, u avval Qaysariyaga borib, shahar hokimi Sohib Isfahoni tomonidan mehmon qilinadi va bir yildan so'ng Ko'niyaga yo'l oladi. O'sha davrda Termizdan Ko'niyagacha bo'lgan safar bir-ikki yil davom etgan.

Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy Ko'niyaga kelgach, bir necha oy Sinjariy masjidida istiqomat qiladi. Bu vaqtda Mavlono Jaloliddin Rumiy Loranda (Karaman) shahrida yashayotgan edi. Sayyid Burhoniddin Mavlono Maktub yozib, mo'g'ullar bosqini tufayli Lorandada qolish xavfli ekanini, Ko'niyaga ko'chib kelishi lozimligini bildiradi. Maktubni olgan Mavlono Jaloliddin Rumiy ustozining taklifidan mamnun bo'lib, darhol Ko'niyaga yo'l oladi. Keyinchalik u to'qqiz yil davomida Burhoniddin Muhaqqiq Termiziydan tasavvuf ilmidan saboq oladi.

Umrining oxirlarida Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy Turkiyaning Qaysariya shahriga boradi. Bu yerda o'zining ilmiy va ma'naviy faoliyati tufayli qisqa fursatda xalq orasida katta obro'-e'tibor qozonadi. U xalq dardi bilan yashab, ko'plab insonlarning qalbidan joy oladi. O'z asarlaridan birida bu haqda shunday deydi: «Birovning dardi – mening ham dardimdir. Men o'z dardimni qanday davolasam, uning dardini ham xuddi shunday davolashim kerak». Shuningdek, u: «Oyog'ingizga bir tikan kirsam, barcha ishni tashlab, avvalo uni sug'urishga harakat qilassiz. Xuddi shunday mehr va g'amxo'rlikni birodaringizga ham ko'rsating», deya ta'kidlaydi [6:32].

Shu sababli Onado'li Saljuqiy davlati vaziri Shamsuddin Sohib Isfahoni ham uning muridlari qatoridan joy olgani manbalarda qayd etiladi. Aflokiy «**Manoqib ul-orifin**» asarida Shamsuddin Isfahoni bilan bog'liq voqeani shunday keltiradi: «Bir kuni Shamsuddin Isfahoni o'z xodimlari bilan Sayyidni ziyorat qilishga keladi. Sayyidning xodimi uning kelganini ma'lum qiladi. Sayyid tashqariga chiqib, ilohiy ma'rifat sir-asrorlari haqida va'z qiladi. Va'z ta'sirida Shamsuddin Isfahoni hushidan ketadi. Suhbat nihoyasida Sayyid ularga: «*Allohu ta'olo sizlarni mag'firat etadi, chunki U rahm qiluvchilarning eng rahmlisidir*», deydi. Buni eshitgan Shamsuddin Sohib shukronalik sifatida muhtojlarga sadaqa

ulashadi» [9:63–64].

Mazkur voqea Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning nafaqat oddiy xalq, balki davlat arboblari orasida ham yuksak e'tibor qozonganini ko'rsatadi. Chunki u o'z davrining mashhur mavlaviylik tariqati shayxlaridan biri edi. Uning fazilat va karomatlarini ko'rgan ko'plab kishilar ushbu tariqatga kirgani tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Aflokiy yana bir voqeani keltiradi: «Bir kuni bir mo'g'ul askari Sayyidni sahroda zikr bilan mashg'ul holda uchratib, qilichini qinidan chiqaradi. Sayyid unga: «*Sen yuzingni yashirsang ham, baribir mo'g'ulсан*», deydi. Askar darhol otdan tushib, ta'zim qiladi va ortiga qaytadi. Oradan biroz vaqt o'tib, yana kelib, Sayyidning boshidan tilla va kumush sochadi hamda unga sadoqat izhor etadi» [9:66]. Shunga o'xshash avtobiografik voqealar Aflokiyning asarida ko'plab uchraydi. Muallif Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning mavlaviylik tariqatining yetuk vakili, orif zot, tasavvuf bilimdoni, mufasssir, faqih, mutakallim va yuksak iste'dod sohibi sifatida ta'riflaydi. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy 1241-yilda Turkiyaning Qaysariya shahrida vafot etib, shu yerga dafn etiladi. Uning vafoti haqidagi xabar Mavlono Jaloliddin Rumiya yetib borgach, u shogirdlari bilan birga Qaysariyaga yo'l oladi. Ustozining qabri boshida Qur'oni karimni xatm qilib, savobini uning muborak ruhiga bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy butun umrini ilm olish va ilm tarqatishga bag'ishlagan buyuk mutasavvif va alloma edi. Uning sa'y-harakatlari natijasida ilm-ma'rifat yo'lida shuhrat qozongan ko'plab shogirdlar voyaga yetdi. Jumladan, Mavlono Jaloliddin Rumi, Salohiddin Zarko'b, Jaloliddin Rumiyaning o'g'li Sulton Valad hamda Sohib Shamsuddin Isfahoniy kabi mashhur shaxslarning tarbiyasida uning beqiyos hisssasi bo'lgani tarixiy manbalarda o'z tasdig'ini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. *Nasoyim ul-muhabbat* / nashrga tayyorlovchilar S. G'aniyeva, M. Mirzaahmedova; arabcha va forsa matnlarni tarjima qilib, nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir S. Rafiddinov. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 317–318.
2. Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. *Maqoloti Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy* / tas'hihi Tavfiq Hoshimpur Subhoniy. – Tehron: Nashri Anjumani Osoru Mafoxiri Farhangiy, 1395. – B. 3–24.
3. Jaloliddin Rumi. *Masnaviy ma'naviy* / bo sa'yu ehtimomi Rinald Nikolson. – Tehron: Shahri kitob, 1380 h.sh. – B. 246.
4. Mirzo Kenjabek. *Buyuk Termiziylar*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – B. 204.
5. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. *Majmuai mavoiz va kalimoti Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ba hamrohii tafsiri surai «Muhammad» va «Fath»* / bo tas'hihot va havoshiyi Badiuzzamon Furuzonfar. – Tehron: Markazi Nashri Donishgohiy, 1339. – B. 106.
6. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy / so'zboshi, tarjima va izohlar muallifi K. Jamahmatov. – Termiz: Kitob nashr, 2024. – B. 32.
7. Seyyid Burhaneddin Tirmizî. *Maârif* / Ali Riza Karabulut tercümesi. – Istanbul, 1995.
8. Sulton Valad. *Valadnoma* / ba tas'hihi ustod alloma Jaloliddin Humoiy. – Tehron: Intishoroti Iqbol, 1376. – B. 149.
9. Shamsiddin Ahmad Aflokiy al-Orifiy. *Manoqibul orifin*. – Tehron: Dunyoi kitob, 1362 h.sh. – B. 66.